

## To'garaklar

Kafedra professor-o'qituvchilaridan Axmedov A, Xodjibekov S va Shermatova G. lar Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha ma'sul etib tayinlangan. «Fizika va kimyo» kafedrasida iqtidorli talabalar bilan «Yosh kimyogar olimlar» va "Yosh fiziklar" to'garaklarida ish olib bormoqda. «Yosh kimyogar olimlar» to'garagida bajariladigan qiziqarli laboratoriya tajribalarini olib borish uchun laboratoriya reaktivlari va eritmalar tayyorlandi;

№	Kafedra	Ilmiy to'garak nomi	Jalb etilgan talabalar soni	Erishilgan natijalar		
				Ilmiy maqolalar chop etish		
				Respublika	Xalqaro	Patent va EHM
1	Fizika va kimyo	Yosh fiziklar	14	8	-	-
2	Fizika va kimyo	Yosh kimyogar olimlar	22	Jami 13ta; shundan 2 ta maqola, 11 ta tezis	2	-

"Yosh kimyogar olimlar" to'garagi talabalari Respublika miqyosidagi konferensiyalarda ham faol ishtirok etib kelmoqdalar. Shu yilning 12-13 May kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetida o'tkazilgan "Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari" deb nomlangan XXII-yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumanida ham o'z ilmiy ishlanmalari bilan faol ishtirok etishdi. Bundan tashqari "Yosh kimyogar olimlar" to'garagidagi MYAMT yo'nalishi, 3-kurs talabalari hamda, QXMSDIT 2-kurs talabalari uchun Malayziyaning "SMART ACADEMY" ilmiy amaliy o'quv markazi seminarlari va vebinalarida ham bevosita onlayn ishtirok etib, dunyoning yetakchi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan eng so'nggi fan va texnika yutuqlari xaqida ham nazariy, ham amaliy ma'lumotga ega bo'lmoqdalar.

Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan iqtidorli talabalarga quyidagi ilmiy ishlariga yo'naltirish berilmoqda:

- Shamol energiyasidan foydalanib elektr energiyaga aylantirish;
- Samarali issiqxona yaratish;
- Dron yaratish;
- Maxsus vazifalarni bajaradigan robot qurilmasini ishlab chiqish;
- Termogeneratordan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqish.